

INGLIZ TILINI O'RGANUVCHI TALABALARDA MUSTAQIL TA'LIM
KO'NIKMALARINI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY USULLARNI YARATISH VA
AMALIYOTGA TATBIQ ETISH

Abdumuminova Dilnoza

*Navoiy viloyati Navoiy davlat pedagogika instituti xorijiy til va adabiyoti
mutaxassisligi 2-kurs magistratura talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili mutaxassisligida tahsil olayotgan talabalarning ijodiy salohiyatini yuksaltirishning eng yaxshi usullaridan biri bo'lgan mustaqil talim haqida so'z boradi. Ushbu maqolada mazkur yo'nalishda bugungi kunda mavjud bo'lgan muammolar va mustaqil ta'lim olishni tashkil etishning yangi usullarini yaratish borasida bir qator takliflar va shu maqsadda amalga oshirilgan bir qator uslubiy tajribalarni misol tariqasida ko'rib chiqiladi va amaliyotda qo'llash mumkin bo'lgan usullar atroflicha yoritib beriladi. Shuningdek oliy talimda o'quv predmeti fan dasturini ishlab chiqishda mustaqil ishlar mavzularini qanday mezonlar asosida belgilash maqsadli bo'lishi shu bilan birga " Mustaqil ta'lim ko'nikmalari " faniga ajratilishi zarur bo'lgan o'quv soatlari hamda mustaqil ta'lim olishning ham mavzuviy, ham uslubiy yondashuviga bo'lgan bugungi kun talabi haqida ham muzokara olib boriladi.*

Kalit so'zlar : *mustaqil ta'lim , kredit modul tizimi, mustaqil fikrlash, faol ishtirokchi-reflector, mustaqil ta'lim mavzulari.*

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konseptsiyasining "Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari" deb nomlangan 3-bobining "Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish" deb nomlangan 1-§ da "Mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetentsiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv uslubiy materiallarni keng joriy etish" masalalarida ta'lim oluvchilarning

mustaqil ta'lim olishlari, mustaqil ishlash malakalarini uzluksiz oshirish orqali mutaxassislarning zaruriy kompetentsiyalarini, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Mustaqil ta'lim– muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan hamda talaba tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim va talabada shakllanishi kerak bo'lgan ko'nikma va malakaga qaratilgan ta'lim shakllaridan biri bo'lib, o'qituvchi maslahati va tavsiyalari asosida asosan auditoriyadan tashqarida bajariladi . Talaba mustaqil ta'limi o'qituvchi rahbarligi ostida (kurs ishi, kurs loyihasi, konferensiyalarga tezis, maqola tayyorlash va h.k.larda) va o'qituvchi rahbarligisiz (asosan, ma'lum kursni belgilangan qismini talabaning o'zi mustaqil o'qib o'zlashtirish uchun) tashkil qilinadi.

Talabalar mustaqil ta'limidan asosiy maqsadlar quyidagilardan iborat: talaba yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmasiga ega bo'lishi;

- o kerakli ma'lumotlarni izlab topish, o'rganishning qulay usullari va vositalarini aniqlay olish

- ko'nikmasiga ega bo'lishi;

- o axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanishi;

- o o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlashi;

- o elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlashi;

- o internet tarmog_idan samarali foydalanishi;

- o ma'lumotlar bazasini tahlil etishi;

- o berilgan topshiriqlarning ratsional yechimini belgilashi;

- o topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashishi;

- o o'quv va ilmiy adabiyotlaridan mustaqil holda ilmiy axborotlarni ola bilishi;

- o amaliy mashg_ulotlarda mustaqil bajarish uchun berilgan amaliy topshiriq (mustaqil ish)larni bajarishi va mustaqil ishlarni mas'ul o'qituvchi va guruh talabalari o'rtasida himoya qila bilishi kerak va h.k. Aksariyat hollarda talabalar mustaqil ishlab, o'z-o'zini boshqarishga, nazorat qilishga va baholashga o'rganadi, bu ularga o'z faoliyatini anglash, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish darajasini o'zi aniqlash,xatolarini ko'rish va ularni bartaraf etish imkoniyatini beradi.

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalar va faol usullardan foydalanish, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik

vositalarni tadbiq qilish, ko'proq talabalarni mustaqil ishlashga undash, ilg'or tajribalardan saboq berishning turli yo'llaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yana bir jihati muhimki, oliy ta'lim tizimida ta'lim olayotgan

talabalarning tanlagan kasbiga moyilligi, layoqatlari, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha mutaxassis sifatida shakllanishlari uchun maxsus fanlarni o'qitishni samarali tashkil qilishni ta'minlash lozim.

Ta'lim oluvchilarni faollashtirish ularning mustaqil o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga muammoni yechimi sifatida shuni aytishim mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kreditmodul tizimiga o'tkazishdir. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida 2030-yilga qadar respublikadagi barcha oliy ta'lim muassasasi (OTM)ning 85 foizi, jumladan, 2020/2021 o'quv yilining o'zida 33 ta oliy ta'lim dargohini kredit-modul tizimiga o'tkazish ko'rsatib o'tildi.

Kredit-modul tizimi, bu - ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi:

talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimni reyting asosida baholash. Shunday ekan, kredit - modul tizimi dars mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan mustaqil o'qibo'rganish, ta'limga yangicha munosabatda bo'lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishdan iboratdir.

Ingliz tilini o'rganish jarayonida talaba interfaol usullar vositasida mustaqil ta'lim olishga rag'batlantiriladi va mustaqil fikrlash talab qilinadi. Bunda o'qituvchi bilim beruvchi va baholovchi sifatida emas, balki fasilitator (inglizcha facilitate so'zidan olingan bo'lib, biror bir jarayonning borishiga yaxshi ta'sir etuvchi va unga mos shart-sharoitlar yaratib beruvchi) sifatida namoyon bo'ladi. Talabadan fan bo'yicha mustaqil o'rgangan bilimlarini auditoriyada turli xil interaktiv uslublar orqali namoyish qila olishi va boshqalarga o'rgata olish talab etiladi.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mazmuni.

Mustaqil ish mavzulari fan o'qituvchisi va talabalar tomonidan ishlab chiqiladi. Mavzular talabani mustaqil bilim olishga ongli ravishda yo'naltirishi lozim. Bunda:

- sensor ta'lim uslublari (vizual, audio, kinestet, taktil);
- ta'lim uslublarining Xani va Mamford tasnifi (nazariyotchi, faol ishtirokchi, reflektor, pragmatik);

- introvert va ekstrovert;
- yaxshi bilim olish uchun ta'limning samarali uslublaridan oqilona foydalanishga asosiy e'tibor qaratiladi
- o'zining til bilish darajasini umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlar (CEFR) ga muvofiq baholash;
- SMART maqsadlar;
- chet tilini o'rganishdan maqsadni toogori belgilash
- ta'lim muassasasi va undan tashqarida vaqtdan unumli foydalanish;
- stress (ruhiy zo'riqish) ga qarshi kurashish;
- vazifalarni aniqlash va personalizatsiya qilish;
- kutubxonalardan unumli foydalanish;
- internetdan maqsadli va samarali foydalanish;
- plagiat (ko' chirmakashlik) ga yo'l qo'ymaslik;
- xotirani yaxshilash;
- topshiriqlar va testga tayyorgarlik ko'rish;
- ta'lim ko'nikmalarini bosqichma-bosqich egallab borish;
- amaliy vazifalarni bajarish;
- mustaqil o'qish;
- dolzarb mavzular muhokamasi;
- matnlar /maqolalar/video materiallarni tanqidiy muhokama qilish;

	The plan of tasks for Independent taska	Hours	Type of work	The planned date
1.	Sensory learning styles - sensor ta'lim uslublari (vizual, audio, kinestet, taktil);	10 hours	Case study Report	September
2.	Honey and Mumford learning styles - ta'lim uslublarning Xani va Mamford tasnifi (nazariyotchi, faol ishtirokchi, reflektor, pragmatik); Making the most of the library - kutubxonalardan unumli foydalanish;	10 hours	Case study Report	September
3.	Introverts and Extraverts - introvert va ekstrovert;	10 hours	Report	Oktober
4.	Assessing your language skills using CEFR -	10 hours	Presenta	Oktober

	o'zining til bilish darajasini umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlar (CEFR) ga muvofiq baholash;		tion	
5.	Preparing for Exams and Tests - topshiriqlar va testga tayyorgarlik ko'rish;	10 hours	Case study Report	November
6.	Setting your goal in learning English - chet tilini o'rganishdan maqsadni to'g'ri belgilash	10 hours	Report	November
7.	Managing time at a University and beyond - ta'lim muassasasi va undan tashqarida vaqtdan unumli foydalanish;	10 hours	Presenta tion	December
8.	Managing Stress - stress (ruhiy zo'riqish) ga qarshi kurashish;	10 hours	presenta tion	December March
9.	21 st century skills. Principles and strategies of online education. Web applications and digital tools - internetdan maqsadli va samarali foydalanish;	10 hours	Presenta tion	Februar y
10.	Identifying and Personalizing the task - vazifalarni aniqlash va personalizatsiya qilish;	10 hours	Report	Februar y
100 hours				

“ Mustaqil ta'lim ko'nikmalari “ fani o'zlashtirilgan bilimlar talabalarning kelgusi kasbiy faoliyatlarida asqotadi. Xorijiy qo'shma korxonalar , xalqaro tashkilotlar va ularning respublikamizdagi bo'limlari elchixonalar va konsulliklar , sayyohlik agentliklari, nashriyot va tahririyatlar, notarial idoralar, tarjimonlik byurolarida kasbiy faoliyat olib boorish jarayonida fandan egallagan bilim va ko'nikmalar mustaqil qaror qabul qilish , masalalar yechimini toppish, xodimlarni mehnatga rag'batlantirishda qo'l keladi.

Xulosa. Oliy ta'limdagi islohotlar zamonaviy bosqichi demokratik yuksak rivojlangan mamlakatlarda darajasida O'zbekistonning ilg'or ilmiy-texnik, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini ta'minlashga qodir va ma'naviy, madaniy va axloqiy sifatlarga ega yuksak malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni talab etadi. Oliy maktabda ta'lim mazmuni mutaxassislar shaxsini rivojlantirish, ularning

chuqur fundamental bilimlarini va amaliy tayyorgarliklarining asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

Muvaffaqiyatli mustaqil ta'lim jarayonida o'qituvchining roli, bilim beruvchi mutaxassis sifatida, talabalarga o'rganish uchun zarur bo'lgan strategiyalarni o'zlashtirishga yordam beradigan "murabbiy" roliga o'tadi. Faoliyatning asosiy turi o'qituvchining o'quvchilarga o'quv maqsadlari haqida o'z g'oyalarini yaratishga yordam berishdir.

Mustaqil ta'lim tushunchasi ko'pincha "shaxslashtirish" va "talabaga yo'naltirilgan ta'lim" kabi ta'limning boshqa yondashuvlari bilan bog'liq. O'z-o'zidan ta'limni muhokama qilish ko'pincha talaba va o'qituvchi o'rtasidagi rol va munosabatlar, shuningdek, o'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rnini kabi muhim masalalar kontekstida sodir bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Kredit-modul tizimi asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etish. Oliy ta'lim professor o'qituvchilari uchun masofaviy kurslar. <https://mt.bimm.uz>.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-son Qaroriga 1-Illova Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom.
3. Ziyodullayeva, G. (2020). O'quvchilarni faollashtirish ,mustaqil ishlarni tashkil etish orqali bilim samaradorligini oshirish yo'llari. Science and Education, 1 (2), 475-479.
4. Cottrell, S. (2013) The Study Skills Handbook Hampshire: Palgrave.
5. ELA Guide (2009) Tashkent: British Council.

6. Rakhmatova, M. (2019) Independent Study Skills. Bukhara: Durdona nashriyoti.